



## TERGOVGA QADAR TEKSHIRUV BOSQICHIDA ASHYOVIIY VA YOZMA DALILLARNI OLISH, QAYD QILISH HAMDA QAYTARISH, SAQLASH VA EGALARIGA QAYTARISH TARTIBI

---

*Muallif: Xolmurotova Zilola Xusan qizi*

**Kalit soʻzlar:** dastlabki tergov, tergovga qadar tekshiruv, dalil, ashyoviy dalil, yozma dalil, biologik dalil, kimyoviy dalil, moddiy boyliklar, pul.

**Anotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida ashyoviy dalillar, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni olib qoʻyish (qabul qilish), hisobga olish, saqlash, berish, sotish, qaytarish, yoʻq qilib tashlash tartibi toʻgʻrisidagi ayrim masalalar yuzasidan qarashlarimiz qayd etilgan.

**Abstract:** In this scientific article, during the pre-investigation examination, inquiry, preliminary investigation and trial, the seizure (receipt) of material evidence, material valuables and other property, accounting, storage, giving, sale, return, no our views on some issues regarding the order of removal have been recorded.

Tergovga qadar tekshiruv va jinoyat ishlarini yuritishda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va sud quyidagilarni olib qoʻyishga haqli:

ashyoviy dalil sifatida ahamiyatga ega boʻlgan, muayyan xususiyatlari, belgilari, izlari mavjud narsa, hujjat va boshqa yozuvlar;

sud tomonidan fuqaroviy daʼvoni taʼminlash maqsadida undiruv qaratilishi mumkin boʻlgan milliy va chet el valyuta hamda boshqa qimmatliklar;

muomaladan chiqarilgan yoki muomalasi cheklangan narsalar (keyingi oʻrinlarda “muomaladan chiqarilgan” deb yuritiladi) — agarda egasida ularni sotib olish, saqlash, foydalanish uchun tegishli ruxsatnoma boʻlmasa;

gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar — agar unga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bogʻliq jazo qoʻllanilgan holda;

davlat mukofotlari va ularga tegishli hujjatlar — ularning kimga tegishliligi aniqlanmagan boʻlsa yoki ularning egasiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasi yoki ozodlikdan mahrum qilish bilan bogʻliq jazo qoʻllanilganligi sababli ularning saqlanishini taʼminlash imkoniyati boʻlmasa, shuningdek sud tomonidan



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga mahkumni davlat mukofotlaridan mahrum qilish to‘g‘risida taqdimnoma bilan murojaat etilgan hollarda.

Surishtiruvchi, tergovchi va sud mazkur Yo‘riqnomaning 1-bandida ko‘rsatilgan narsa va hujjatlarni JPK 198, 200 va 201-moddalariga, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi esa, 329-moddasiga muvofiq ularning talabiga asosan yoki ushbu narsa va hujjatlarning egasi bo‘lmish shaxslar tashabbusi bilan taqdim etilgan holda, agarda ular ish uchun ahamiyatli bo‘lsa yoki kelgusida ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin bo‘lsa, ularni qabul qilishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi va sud gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi yoki ularni vakilining arizasiga asosan fuqaroviy da‘voni ta‘minlash maqsadida yoxud garov tariqasida pul mablag‘lari va tovar-moddiy qimmatliklarni ham qabul qilib oladi va qonun hujjatlari talablari asosida topshirilishini ta‘minlaydi.

Narsa, hujjat, moddiy qimmatliklar va boshqa mol-mulkni (keyingi o‘rinlarda “narsalar” deb yuritiladi) olib qo‘yish, taqdim qilish JPK 16, 20 va 24-boblarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Radioaktiv materiallarni olib qo‘yish mutaxassis ishtirokida amalga oshiriladi.

JPKning 206-moddasiga muvofiq, olib qo‘yilayotgan yoki taqdim qilinayotgan narsalar ishga taalluqliligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga asos bo‘ladigan, shuningdek ularni boshqa narsalardan farqlovchi belgilarini aniqlash maqsadida JPK 135 — 137, 139 va 140-moddalarida belgilangan qoidalar asosida darhol ko‘zdan kechiriladi.

O‘zi bilan muomala qilish uchun muayyan mahoratga ega bo‘lishini, o‘z sifat tavsiflari, individual xususiyatlarining aniq qayd etilishini va qiymatining aniqlanishini talab etuvchi narsalarni olib qo‘yish yoxud qabul qilish tegishli mutaxassislar ishtirokida amalga oshiriladi.

Ashyoviy dalil sifatida ahamiyatga ega bo‘lgan yoki muomaladan chiqarilgan narsalar olib qo‘yilganida yoxud taqdim qilinganida, surishtiruvchi, tergovchi, sud narsalar olib qo‘yilayotgan yoki qabul qilinayotgan shaxsni, ularning topilishi, qo‘lga kiritilishi va saqlanish vaqti, joyi va boshqa holatlari to‘g‘risida so‘roq qilishi shart.

Ish holatlaridan kelib chiqqan holda, agarda narsani butunligicha olib qo‘yish imkoni bo‘lmasa, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, sud, ushbu narsaning ishga bog‘liq bo‘lgan izlar (mikroizlar) joylashgan yoki joylashishi mumkin bo‘lgan qismini olib qo‘yish yoki qabul qilishga haqli. Bunda, narsaning shikastlanishiga yo‘l



qo‘ymaslik, agarda buning imkoni bo‘lmasa — narsaning yaxlitligini buzish asosi batafsil bayon etilishi zarur.

Ish uchun ahamiyatli bo‘lmagan yoki muomaladan chiqarilmagan narsalar taqdim qilingan hollarda, surishtiruvchi, tergovchi, sud, ularni ko‘zdan kechirib bo‘lganidan keyin egalariga darhol qaytarib beradi. Narsani qabul qilib olgan shaxsdan bu haqda tilxat olinadi.

JPK 90 — 92, 141, 163, 202-moddalarida nazarda tutilgan qoidalarga muvofiq narsalarning olib qo‘yilganligi, taqdim etilganligi to‘g‘risida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi bayonnoma tuzadi, sud esa sud majlisining bayonnomasiga yozib qo‘yadi.

Ko‘p sonli narsalarni olib qo‘yish yoki taqdim qilishda ular to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni bayonnomada aks ettirish imkoniyati bo‘lmasa, majburiy tarzda ularning ro‘yxati tuzilib, bayonnomaga ilova qilinadi va uning ajralmas qismi hisoblanadi. Bayonnomada yoki unga ilova qilinayotgan ro‘yxatda olib qo‘yilgan, taqdim qilingan hujjatlarning turi va rekvizitlari, narsalarning turi, miqdori, tipi, markasi, modeli, kalibri, seriyasi, raqami va boshqa identifikatsion xususiyatlari to‘g‘risidagi aniq ma’lumotlar ko‘rsatiladi.

Agar olib qo‘yilayotgan yoki taqdim qilinayotgan narsalar ro‘yxatini, ularning miqdori ko‘pligi sababli, shu joyning o‘zidayoq tuzish imkoniyati bo‘lmasa, ular o‘ramga solinib muhrlanadi va narsalari olib qo‘yilgan yoki qabul qilingan shaxs, xolislar, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, sudya tomonidan yozuvlar va imzolar bilan tasdiqlangan yorliqlar bilan ta’minlanadi. Bunday holatlarda, olib qo‘yilayotgan, taqdim etilayotgan narsalarning ro‘yxati tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, tergov yoki sud muhokamasi o‘tkazilayotgan joyda xolislar ishtirokida tuziladi va bu haqda bayonnomada narsalar solingan o‘ramdagi muhrlar va imzolar butunligi ko‘rsatiladi.

Zarur hollarda narsalarni olib qo‘yish, taqdim qilish chog‘ida fotosuratga yoki videoyozuvga tushiriladi, shuningdek JPKning 91-moddasi to‘rtinchi qismida nazarda tutilgan protsessual harakatlar majburiy tarzda videoyozuv orqali qayd etiladi. Bunda, fotosuratlar, videoyozuv bayonnomaga ilova qilinadi va protsessual harakatning nomlanishi, sanasi, joyini izohlovchi yozuvlar bilan rasmiylashtiriladi.

Basharti, olib qo‘yilayotgan, taqdim etilayotgan narsaning qiymati bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravariga teng yoki undan ko‘p bo‘lsa, olib qo‘yilayotgan yoki taqdim etilayotgan narsalarning har biri alohida fotosuratga (imkoni bo‘lsa, video suratga ham) olinishi shart.



Har bir olib qo'yilgan, taqdim etilgan narsa xolislar va protsessual harakatining amalga oshirilishida ishtirok etayotgan shaxslarga tanishish va ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi. Shundan so'ng, shikastlanishiga yo'l qo'ymaydigan va undagi izlarning (mikroizlar) butunligini ta'minlaydigan o'ramga joylashtiriladi (fuqaroviy da'voni ta'minlash uchun yoki garov tariqasida taqdim etilayotgan pul yoki boshqa mol-mulk, katta hajmli narsalar, katta og'irlikdagi yoki hajmdagi moddalardan tashqari) va narsasi olib qo'yilgan yoxud qabul qilingan shaxs, xolislar, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudyaning imzolari va tasdiqlovchi yozuvlari bo'lgan yorliq bilan ta'minlanadi, tegishli organ muhri bilan muhrlanib, bu haqda bayonnomaga tegishli yozuv kiritiladi.

Bayonnoma narsani olib qo'ygan yoxud qabul qilgan shaxs, xolislar, mutaxassislar (agar ular protsessual harakatni amalga oshirilishida qatnashgan bo'lsalar), shuningdek narsasi olib qo'yilgan yoki qabul qilingan shaxs, agarda u yo'q bo'lsa, uning voyaga yetgan oila a'zosi yoki tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi yoxud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi vakili tomonidan imzolanadi.

Bayonnoma nusxasi (sud majlisi bayonnomasidan ko'chirma) quyidagilarga beriladi:

tilxat orqali narsasi olib qo'yilgan yoki qabul qilingan shaxsga, agar u yo'q bo'lsa — uning voyaga yetgan oila a'zosiga yoxud tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi vakiliga;

olib qo'yilgan, taqdim etilgan narsalar saqlanishi uchun javobgar shaxsga (narsa saqlash uchun tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, sud organida maxsus ajratilgan xonaga yoxud korxonaga, muassasa, tashkilotga topshirilganda);

surishtiruv yoki dastlabki tergov olib borayotgan organ, sudning buxgalteriya hisobi bo'limiga (depozit hisobiga pul topshirilganda).

Ishga aloqador olib qo'yilgan, taqdim etilgan narsalar JPK 207-moddasida belgilangan tartibda ashyoviy dalil deb e'tirof etilishi va ishga qo'shib qo'yilishi shart.

Davlat daromadiga o'tkazilishi yoxud yo'q qilib tashlanishi lozim bo'lgan olib qo'yilgan yoki taqdim etilgan narsalarni iste'mol, foydalanish, qayta ishlash uchun yaroqliligini ekspertizadan o'tkazish va baholash Nizomning II bo'limi talablariga asosan amalga oshiriladi.



JPK 207-moddasiga muvofiq ashyoviy dalilni ishda qoldirish yoki uni saqlash uchun topshirish masalasi narsani ashyoviy dalil deb e'tirof etish va jinoyat ishiga qo'shish to'g'risidagi surishtiruvchi, tergovchining qarori, sudning ajrimiga asosan hal etilishi lozim.

Fuqaroviy da'voni ta'minlash yoxud garov tariqasida olib qo'yilgan yoki qabul qilingan pullarni surishtiruv, dastlabki tergov organi yoki sudning depozit hisob raqamiga topshirish masalasi alohida qaror (ajrim) chiqarish orqali darhol hal etilishi shart.

Fuqaroviy da'voni ta'minlash uchun yoki garov tariqasida olib qo'yilgan, qabul qilingan narsalarni saqlash uchun topshirish masalasi ham shunday tartibda hal etiladi.

Ashyoviy dalillar tergovga qadar tekshiruv materialli yoki jinoyat ishi bilan saqlanadi, agar buning imkoniyati bo'lmasa (juda katta bo'lsa yoki boshqa sabablarga ko'ra) saqlashga topshiriladi va bu haqda ikki nusxada bayonnoma tuziladi.

Ashyoviy dalillarni saqlash uchun surishtiruv, dastlabki tergov organlari va sudlarda stellajlari, metall eshigi, panjara qilingan derazalari, qo'riqlash va yong'inga qarshi signalizatsiyasi bo'lgan maxsus xonalar jihozlanadi yoki yetarli kattalikdagi maxsus seyf ajratiladi (keyingi o'rinlarda "saqlash xonasi" deb yuritiladi).

Agarda, narsa o'zining alohida xususiyatlari yoki sifatleri sababli maxsus saqlash sharoitlarida saqlanishi lozim bo'lsa (ma'lum harorat, namlik va h. k.), tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, sud uni shu sharoitlariga ega muassasa yoki tashkilotga saqlash uchun topshiradi. Olingan (qabul qilingan) narsalar mazkur Nizomning 5-bandi ikkinchi xatboshida nazarda tutilgan tartibda (olib qo'yilgan mol-mulk saqlash uchun savdo tashkilotlariga beriladi) ham saqlanishi mumkin.

Ashyoviy dalillar saqlash uchun, qoida tariqasida, o'ramga solingan, muhrlangan ko'rinishda, o'ram ichidagi narsalar ro'yxati bilan birgalikda qabul qilinadi.

Ashyoviy dalillar va boshqa narsalarni saqlashda olib qo'yilgan, qabul qilingan obyektlar, ularning belgilari va xususiyatlari, shuningdek ulardagi mavjud izlarning butligini ta'minlovchi chora-tadbirlar ko'riladi.

Jinoyat ishi bilan saqlanayotgan ashyoviy dalillarning butligi uchun jinoyat ishi ish yurituvda bo'lgan shaxs, sudda esa — ish bo'yicha raislik etuvchi yoki sud raisi javobgar hisoblanadi.



Saqlash xonasiga topshirilgan ashyoviy dalillar va boshqa narsalarning butligi uchun tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov organi rahbarining yoki sud raisining buyrug'iga asosan mas'ul etib tayinlangan shaxs javobgar hisoblanadi. Bunda, qoida tariqasida, saqlash uchun mas'ul bo'lgan shaxs tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sudya bo'lmasligi lozim.

Muassasa yoki tashkilotga saqlash uchun topshirilgan ashyoviy dalil va boshqa narsalarning butligi uchun mazkur muassasa yoki tashkilotning rahbari javobgar hisoblanadi, bu haqda unga ma'lum qilinib, tilxat olinadi.

Saqlash xonasiga faqat ashyoviy dalillar va boshqa narsalarning saqlanishi uchun javobgar shaxs (keyingi o'rinlarda javobgar shaxs deb yuritiladi) ishtirokida kirish mumkin. Agar u yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs bo'lmasa, saqlash xonasiga kirish tegishli prokurorning, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov organi rahbarining, prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati (keyingi o'rinlarda DXX deb yuritiladi), ichki ishlar organi (keyingi o'rinlarda IIO deb yuritiladi) tergov tarmog'i boshlig'ining, sud raisining (sudyaning) yozma ruxsati va ularning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi, ushbu shaxslarda saqlash xonasiga kirish eshigining dublikat kaliti bo'lishi shart.

Ashyoviy dalillar va boshqa narsalarning saqlanishi uchun javobgar shaxsning ishtirokisiz saqlash xonasi ochilishining har bir holati bo'yicha ochilish sabablari ko'rsatilgan dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomada nima munosabati bilan va qaysi ashyoviy dalillar yoki boshqa narsalar saqlash xonasidan olinganligi yoki unga qo'yilganligi ham ko'rsatiladi. Dalolatnoma, ashyoviy dalillar va boshqa narsalarni hisobga olish kitobiga tegishli yozuvlar kiritilishi uchun, ashyoviy dalillar va boshqa narsalarning saqlanishi uchun javobgar shaxsga beriladi.

Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi davomida olib qo'yilgan yoxud taqdim qilingan o'q otar qurollar, o'q-dorilar, ekspert-kriminalistika bo'linmalarida tekshiruvdan o'tkazilganidan keyin faqat Ichki ishlar vazirligi (keyingi o'rinlarda IIV deb yuritiladi), DXX organlarida yoki Mudofaa vazirligining harbiy (xo'jalik) muassasalarida saqlanadi.

Portlovchi moddalar va portlatish vositalari saqlash uchun harbiy qismlar omborxonalariga yoki tegishli davlat korxonalariga (tashkilotlariga) topshiriladi, zaharlar va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ularni saqlash uchun yetarli shart-sharoitlari bo'lgan tashkilotlar omborxonalariga, ularning rahbariyati (qo'mondonligi) bilan kelishgan holda va roziligi asosida topshiriladi.





Tegishli organ yoki idoraga qarashli qurol-yarog'lar, o'q-dorilar, harbiy anjomlar olib qo'yilgan, taqdim etilgan holatlarda, ular tegishliligi bo'yicha saqlash uchun berilishi lozim, agar bu tergovga qadar tekshiruv, tergov harakatlari yoki sud muhokamasi o'tkazilishini qiyinlashtirmasa.

Radioaktiv materiallar ekspertizadan o'tkaziladi va saqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Yadro fizikasi institutiga yoki belgilangan litsenziyaga ega bo'lgan boshqa tashkilotga topshiriladi.

Ushbu badda ko'rsatilgan narsalar saqlash uchun topshirilgan har bir holatda bayonnoma tuziladi.

Soyli stvolli o'q otar qurollarni qo'llash bilan bog'liq barcha holatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov organlari va sudlar olib qo'yish (qabul qilish), ko'zdan kechirish va tegishli tekshirishlar o'tkazilganidan so'ng, qurol izi bo'lgan o'qlar, gilzalar va patronlarni, shuningdek soyli stvolli o'q otar qurolni IIVning Davlat o'q — gilzotekasiga yuborishlari shart.

Soyli stvolli o'q otar qurolni Davlat o'q — gilzotekada tekshiruvdan o'tkazish bilan bir vaqtda, u O'zbekiston Respublikasi IIV Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazi va uning hududiy bo'linmalarining yo'qolgan va aniqlangan qurollarning operativ hisobi bo'yicha ham tekshiriladi.

Soyli stvolli o'q otar qurollarni qo'llash bilan bog'liq ishlar tamomlangach, ko'rsatilgan qurollar O'zbekiston Respublikasi hududida yo'qolgan va aniqlangan soyli stvolli o'q otar qurollar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasiga hisobga qo'yilishi shart.

Tegishliligi aniqlanmagan va qidiruvi ichki ishlar organlarining tegishli tezkor-qidiruv va kriminalistik hisoblari bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lgan narsalar aniqlanganida va olib qo'yilganida (taqdim etilganida), darhol ushbu obyektlarni mazkur hisoblar bo'yicha tekshiruvdan o'tkazish choralari ko'riladi.

Olib qo'yilgan (taqdim etilgan) davlat mukofotlari va ularga taalluqli hujjatlar ikki nusxada tuzilgan olib qo'yish bayonnomasi va narsalar ro'yxati bilan birga olib qo'yilganidan (taqdim etilganidan) keyin bir sutka muddat ichida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv yoki dastlabki tergov o'tkazayotgan organ buxgalteriyasining kassasiga topshiriladi yoki maxsus aloqa xizmati orqali yuboriladi (ularni o'rganish zarur bo'lgan hollar bundan mustasno). Bayonnomaning ikkinchi nusxasiga kassir mukofotlar va ularga taalluqli hujjatlarni qabul qilganligi haqida imzo qo'yib beradi va u ishga qo'shib qo'yiladi. Ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga ilova qilinadigan ma'lumotnomada olib qo'yilgan, taqdim etilgan davlat mukofotlari,



ularga taalluqli hujjatlar va ularning saqlanish joyi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Agar davlat mukofotlari va ularga taalluqli hujjatlar ashyoviy dalil hisoblansa yoki ular bo'yicha ekspertiza tayinlansa, ular zarur protsessual harakatlarni amalga oshirish uchun tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov organida, sudda qolishi mumkin.

Ashyoviy dalil tariqasida olingan yoki jinoyat sodir etish quroli sifatida foydalanilgan avtomashinalar, mototsikllar va boshqa transport, shu jumladan, suzuvchi vositalarni, shuningdek xatlangan transport vositalari, surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi davomida olib qo'yilgan transport vositalarini almashtirish yoki ekspluatatsiya qilishga imkon bermaslik uchun transport vositasining spidometri (elektron spidometr dan tashqari), dvigateli, rul boshqaruvi, boshqa qismlari va detallari oldindan muhrlangan va plombalangan holda (agarda ular egasiga, uning qarindoshlariga yoki boshqa shaxslarga, shuningdek tashkilotlarga saqlashga topshirilishi mumkin bo'lmasa) saqlash uchun IIV Yo'l harakati xavfsizligi bo'linmalari (keyingi o'rinlarda YHXB deb yuritiladi), Bosh prokuratura, IIV va DXXning xo'jalik boshqarmalariga (bo'limlariga) topshiriladi va ushbu boshqarma (bo'lim) rahbarlaridan saqlashga qabul qilinganligi haqida tilxat olinib, ishga qo'shib qo'yiladi. Tilxatda saqlash uchun qabul qilingan transport vositasi butligi uchun shaxsan kim javobgar ekanligi ko'rsatiladi.

Transport vositasini olib qo'yishda, taqdim etishda, shuningdek saqlash uchun topshirishda YHXB organlari mutaxassisleri tomonidan hududiy moliya organi va ixtisoslashtirilgan avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish korxonalarini vakillarini jalb qilgan holda hamda imkoni bo'lsa, transport vositasining egasi ishtirokida ushbu transport vositasining texnik holati to'g'risida dalolatnoma tuziladi.

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlarni olib qo'yish, taqdim etish, ekspertizadan o'tkazish, saqlash va boshqa harakatlar qonun hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop moddalar va prekursorlar bo'yicha ekspertiza tayinlangunga hamda ekspertiza xulosasi olingunga qadar muhrlangan holda tegishli IIV, DXX organi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning saqlash xonasida yoki jazoni ijro etish muassasasida yashash va ishlab chiqarish zonalaridan tashqarida joylashgan operativ qismning seyfida saqlanishi shart.





Ekspertiza xulosasi olingandan so'ng giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar 15 kun ichida markazlashtirilgan holda saqlash uchun DXX organlariga topshirilishi shart.

Qamoqda saqlanayotgan ayblanuvchining (sudlanuvchining) pasporti yoki identifikatsiya ID-kartasi, tug'ilganlik haqidagi guvohnomalari, ofitser shaxsini tasdiqlovchi guvohnomalari, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi guvohnomalari, harbiy guvohnomalar, qayd etish guvohnomalari jinoyat ishiga qo'shib qo'yiladi va ishga navbatdagi varag'i sifatida tikilgan va raqamlangan alohida muhrlangan paketda saqlanadi. Boshqa shaxsiy hujjatlar, shuningdek belgilangan tartibda ashyoviy dalil deb e'tirof etilmagan narsa va ashyolar, agar ular ish uchun ahamiyatga ega bo'lmasa, egalariga, ularning qarindoshlariga yoki egasi ko'rsatgan boshqa shaxslarga qaytarib beriladi.

Ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning shaxsiy hujjatlari jazoni o'tash joyiga yuboriladi.

Qimmatbaho metallar (bunday buyumlarning parchalari), qimmatbaho toshlar va durdan yasalgan buyumlar, shuningdek qimmatbaho toshlar, qo'lda yasalgan zargarlik buyumlari, qimmatbaho metallardan yasalgan tangalar tegishli ekspertizalar o'tkazilganidan so'ng hamda baholanganidan keyin o'ralgan holatda, ro'yxat asosida saqlash xonasiga yoxud xizmat ko'rsatuvchi bankka yoki O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Qimmatbaho metallarni saqlash va ular bilan ishlash xizmatiga (keyingi o'rinlarda Qimmatbaho metallarni saqlash va ular bilan ishlash xizmati deb yuritiladi) saqlash uchun topshiriladi.

Muomaladan chiqarilgan qimmatbaho metallarning (oltin, kumush, platina va platina guruhiga kiruvchi boshqa metallar) quymalari, cho'kindilari (shlix), yombi, xomaki mahsulot shaklidagi, ishlab chiqarish yoki laboratoriyada foydalanishga mo'ljallangan, shuningdek olmoslar yoki boshqa tabiiy qimmatbaho toshlar tegishli o'rganishlardan so'ng, agarda ular ashyoviy dalil hisoblanmasa va keyinchalik maxsus o'rganilishi lozim bo'lmasa, Qimmatbaho metallarni saqlash va ular bilan ishlash xizmatiga topshiriladi.

Fuqarolardan olib qo'yilgan (qabul qilingan) milliy va chet el valyutasidagi pul summalari, davlat zayom obligatsiyalari, pul-buyum lotereya biletlari, omonat daftarchalari, depozit sertifikatlari, akkreditivlari, cheklari va chek daftarchalari, depo hisobvarag'idan ko'chirmalar (depozitariy tomonidan beriladigan deponentning qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarini tasdiqlaydigan hujjat) hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar quyidagi tartibda saqlanadi (agarda ular ashyoviy dalil deb hisoblanmasa va maxsus tekshiruvdan o'tkazish lozim bo'lmasa):



milliy yoki chet el valyutasidagi naqd pul mablagʻlari tegishli organga xizmat koʻrsatuvchi bankda milliy yoki chet el valyutasida ochilgan ikkilamchi talab qilib olinguncha depozit hisobvaragʻiga kiritib qoʻyiladi yoki Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir Yoʻriqnomada (roʻyxat raqami 3028, 2018-yil 29-iyun) belgilangan tartibda saqlash uchun bank kassasiga topshiriladi;

davlat zayom obligatsiyalari, omonat daftarchalari, sertifikatlar, akkreditivlar, cheklar va chek daftarchalari, pul-buyum lotereyasi biletlari, shuningdek depo hisobvaragʻidan koʻchirmalar ularni olib qoʻygan (qabul qilgan) organda saqlanadi, bunda ularning but saqlanishiga rioya etilishi lozim, yoki oʻramga solingan holda banklar yoki ularning filiallariga saqlash uchun topshiriladi.

Naqd pul va boshqa qimmatliklar saqlash uchun bank kirim kassasiga topshirilganida, huquqni muhofaza qiluvchi organ vakiliga 004-shakldagi naqd pul va boshqa qimmatliklar saqlash uchun qabul qilinganligi toʻgʻrisidagi kvitansiya rasmiylashtirib beriladi. Bank pul omboriga saqlash uchun qabul qilingan naqd pul va boshqa qimmatliklarni huquqni muhofaza qiluvchi organ vakiliga qaytarib berish uchun, uni topshirgan organ rahbarining imzosi qoʻyilib, dumaloq muhri bilan tasdiqlangan yozma soʻrovnomasining asl nusxasiga 004-shakldagi kvitansiyaning asl nusxasi ilova qilingan holda taqdim etilishi kerak. Bankka saqlash uchun qabul qilingan qimmatliklarning qisman qaytarilishiga yoʻl qoʻyilmaydi. Qimmatliklarning bir qismini olish zarur boʻlsa, bank qimmatliklar solingan joʻnatmani toʻligʻicha ularni topshirgan organga qaytarib beradi. Bank pul omboriga saqlash uchun qabul qilingan naqd pul va boshqa qimmatliklarni but saqlanishi boʻyicha bankning moddiy javobgar shaxslari, ularni topshirgan organ oldida qonunchilikda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi. Bank pul omborida saqlash uchun qabul qilingan naqd pul va boshqa qimmatliklarga zarar yetkazilgan taqdirda, uning egasiga yetkazilgan zararni qoplash, qimmatlikni haqiqiy bahosi doirasida lekin, saqlash uchun qabul qilingan vaqtda baholangan bahosidan oshmagan miqdorda amalga oshiriladi.

Naqd pul va boshqa qimmatliklarni saqlash uchun topshirgan davlat organi xodimi 004-shakldagi kvitansiyaning yoʻqotgan hollarda yoki boshqa sabablarga koʻra uni bankka taqdim etishni imkoniyati mavjud boʻlmasa, bunday hollarda saqlashga topshirilgan naqd pul va boshqa qimmatliklarni bank kassasidan qaytarib olish uchun ushbu davlat organining respublika miqyosidagi yuqori turuvchi tashkiloti (vazirligi, qoʻmitasi va hokazo) tomonidan chiqarilgan buyruq asos boʻlishi mumkin. Ushbu buyruqda bank kassasiga saqlash uchun topshirilgan qimmatliklarni



qaytarib olish vakolatiga ega bo'lgan xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi hamda olinadigan qimmatliklarning to'liq va batafsil ro'yxati qayd etilgan bo'lishi lozim.

Omonat daftarchalarini olib qo'yish bilan bir vaqtda, tegishli banklarga banklarda ochilgan depozit hisobvaraqlardagi mablag'larni xatlash to'g'risidagi qaror nusxasi ham yuboriladi. Xatlash to'g'risidagi qarorning matnida ish yurituvdagi jinoyat ishining raqami, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa — jinoyat ishidan kelib chiqadigan fuqarolik ishining raqami ko'rsatiladi.

Fuqaroviy da'voni ta'minlash uchun va garov tariqasida olib qo'yilgan, qabul qilingan milliy yoki chet el valyutasidagi pul mablag'lari (ashyoviy dalil deb e'tirof etilgan va individual xususiyatlarga ega bo'lgan pul mablag'laridan tashqari) dastlab dalillarni qayd etish kitobiga tegishli yozuvlar kiritilib, surishtiruv, dastlabki tergov organining qarori, bayonnomasi yoki sud ajrimi nusxasiga muvofiq tergov yoki surishtiruv o'tkazayotgan organning moliya-xo'jalik bo'limiga bir sutka muddat davomida topshiriladi. Buning o'rniga kassir surishtiruvchi, tergovchi yoki sud organining mas'ul shaxsiga raqami ko'rsatilgan kiritim orderi kvitansiyasini beradi.

Kassir qabul qilingan pullarni ikki sutka davomida olib qo'yishni (qabul qilishni) amalga oshirgan organning milliy yoki chet el valyutasidagi talab qilib olinguncha hisobvarag'iga kiritish uchun bankka topshiradi.

Pullarni bankka yetkazishda har bir holatda qo'riqlanishi ta'minlanadi.

Mazkur Yo'riqnomaning 25 — 27-bandlarida qayd etib o'tilgan narsalar yoki boshqa qimmatliklar ashyoviy dalil bo'lib hisoblangan hollarda, ular zarur tekshiruvlar o'tkazilgandan so'ng uch kunlik muddatdan kechiktirmasdan, alohida muhrlangan va ro'yxati ilova qilingan paketlarda javobgar shaxsga saqlash uchun saqlash xonasiga yoki banklar yoki ularning filiallariga topshiriladi. Bunday hollarda yo'naltiruvchi xatda jo'natilayotgan qimmatliklar ashyoviy dalil ekanligi va ular olib qo'yilishi (qabul qilinishi) uchun asos bo'lgan jinoyat ishini ko'rib chiqayotgan yoki hukmni ijro etuvchi organning alohida farmoyishi berilmagunga qadar saqlanishi haqida alohida ko'rsatib o'tiladi.

Ishga ashyoviy dalil tariqasida qo'shilgan hujjatlar, xatlar va boshqa yozuvlar toza qog'oz varaqlari orasiga solingan holda konvertlarda saqlanadi, bunda ularga qandaydir belgilar, yozuvlar kiritish yoki ularni buklash man etiladi. Konvertlar muhrlanadi, ishga tikiladi va ishning navbatdagi varag'i sifatida raqamlanadi. Ishga qo'shilayotgan xatlar va hujjatlar ko'p miqdorda bo'lsa, ular ishga ilova qilinadigan



alohida konvertga solinadi. Konvertda yoki paketda unga solib qo'yilgan hujjatlarning ro'yxati ko'rsatilgan yozuv bo'lishi shart.

Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya ishga qo'shilgan korrespondensiyaning mazkur ish bo'yicha tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov, sud muhokamasini yuritishga daxldor bo'lmagan shaxslardan sir saqlanishini ta'minlashi shart.

Olib qo'yilgan maxfiy xarakterli, lekin ashyoviy dalil bo'lmagan hujjatlar, chizmalar, fotosuratlar maxsus qismlar va 1-bo'limlar orqali ularning egasi bo'lgan tashkilotlar va muassasalarga yuboriladi.

Ashyoviy dalillar va boshqa narsalarni ularning shikastlanishiga va kelgusida tekshiruvlar o'tkazish hamda dalil sifatida foydalanish imkonini bermaydigan holatga tushishiga olib keluvchi holatda saqlashga topshirish man qilinadi. Zarur hollarda olib qo'yilgan, qabul qilingan ashyoviy dalillar va boshqa narsalarni kelgusida saqlash imkonini beruvchi holatga olib kelishga qaratilgan kechiktirib bo'lmas choralar ko'rilishi shart.

O'zgaruvchan xususiyatga ega, shuningdek bir marta ishlatiladigan yoki vaqtinchalik xususiyatlarga ega bo'lgan narsalar olib qo'yilgan, taqdim etilgan holda, olib qo'yish, qabul qilishni amalga oshirgan organ uning ko'zdan kechirilishi va ko'zdan kechirish natijalari JPK 141-moddasi talablariga muvofiq mustahkamlanishini ta'minlashi shart.

Biologik kelib chiqishga ega, shu jumladan, mikroskopik yoki kimyoviy tekshiruv o'tkazilishi lozim bo'lgan, tez buziladigan obyektlar germetik zich yopiladigan idishga joylashtirilishi kerak. Bunday idishga joylashtirish sud-tibbiyot muassasalari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ekspert tekshiruvi tamomlangach, biologik obyektlar tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi o'tkazilgan joyda saqlanadi. Agar biologik obyektlarni saqlash uchun maxsus shart-sharoitlar talab qilinsa, ular rahbariyat bilan kelishilgan holda sud-tibbiyot muassasasida saqlanadi.

Saqlash muddati 72 soatgachani tashkil qiladigan tez buziladigan tovarlar, shuningdek yaroqlilik muddati bir oy mobaynida tugaydigan tovarlar, ularning davlat daromadiga o'tkazilishi to'g'risida qaror qabul qilinganidan qat'i nazar, iste'molga (foydalanishga, qayta ishlashga) yaroqliligi bo'yicha ekspertiza xulosasi va uni baholash vaqtidan boshlab bir sutka mobaynida olib qo'ygan organning mansabdor shaxsi tomonidan davlat ijrochisi ishtirokida sotish uchun berish dalolatnomasi bilan savdo tashkilotlariga sotish uchun beriladi.



Bunda tovarlarni sotishdan tushgan mablag'lar tovarni davlat daromadiga o'tkazish yoxud uni qaytarish to'g'risida ijro hujjati olingunga qadar davlat ijrochilarining tegishli bo'limlaridagi depozit hisob raqamlariga o'tkaziladi.

Ushbu bandning birinchi xatboshida ko'rsatilgan tovarlarning iste'molga, foydalanishga yoki qayta ishlashga yaroqsizligi to'g'risida ekspertiza tomonidan xulosa chiqarilgan taqdirda uni olib qo'ygan vakolatli organning mansabdor shaxsi davlat ijrochisi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati va O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi vakillari va xolis guvohlar ishtirokida iste'mol qilish, foydalanish yoki qayta ishlash uchun yaroqsiz deb topilgan mol-mulkni Nizomda nazarda tutilgan barcha talablar bajarilgan holda yo'q qilib tashlaydi.

Jinoiy harakatlar obyekti bo'lib xizmat qilgan yoki o'zida jinoyat izlarini saqlab qolgan oziq-ovqatlar yoki sanoat tovarlari ekspert tekshiruvi uchun butunligicha yoki zarur bo'lgan qismi (namuna, proba) topshiriladi. Imkoni bo'lsa, tekshiruvga yuborilayotgan proba yoki namunadan tashqari, qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatini ta'minlash uchun namuna yoki proba ajratib olinadi va muhrlangan ko'rinishda ishga qo'shib qo'yiladi.

Ashyoviy dalil tariqasida e'tirof etilgan ish va uy hayvonlari, tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv, dastlabki tergov organlari, sud tomonidan qaror chiqarilgunga qadar, tegishli dalolatnoma rasmiylashtirilgan holda, saqlash uchun jabrlanuvchi shaxslar yoki tashkilotlarga, ular bo'lmaganda esa, hududiylik bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organi, shirkat yoki fermer xo'jaliklariga topshiriladi.

Ayblov dalolatnomasi yoki ayblov xulosasiga ilova qilinadigan ma'lumotnomada ish bo'yicha olib qo'yilgan, taqdim etilgan narsalar qayerda saqlanayotganligi, baholanganligi va ular topshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar tikilgan ish varag'i ko'rsatiladi.

Xatlangan narsalar surishtiruvchi, tergovchining qarori yoki sudning ajrimi bo'yicha, aniq holatlar va ish manfaatlaridan kelib chiqqan holda, saqlash uchun mahalliy davlat hokimiyati organi yoki uy-joy mulkdorlari shirkatiga, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Qo'riqlash bosh boshqarmasining hududiy bo'linmalari (ular vakolati doirasida), shuningdek zarar yetkazilgan taraf yoki ushbu mol-mulk egasi yoxud uning qarindoshiga topshiriladi va ular qabul qilingan narsaning saqlanishi uchun javobgar ekanligi tushuntiriladi hamda bu haqda tilxat olinadi.

Xatlangan san'at asarlari va antikvar buyumlar saqlash uchun muzeylarga topshirilishi mumkin.



Muayyan jinoiy ishlar bo'yicha ashyoviy dalillar boshqa ishlar bo'yicha ashyoviy dalillardan alohida holda saqlanadi.

Ochilmagan jinoyatlar bo'yicha harakatdan to'xtatilgan ishlar yuzasidan ashyoviy dalillar tergov o'tkazilgan joyda, harakatdagi ishlar bo'yicha ashyoviy dalillardan alohida holda, o'ramga solingan va muhrlangan ko'rinishda saqlanadi, ularning saqlanishi va keyinchalik foydalanish imkoniyati ta'minlanadi. Bunday obyektlar solingan har bir paket ish raqami, uning qisqacha mazmuni (fabulasi) va qo'zg'atish sanasi, o'ramga solingan obyekt nomi ko'rsatilgan izohli yozuv bilan ta'minlanadi.

Saqlash sharoiti mazkur Yo'riqnoma bilan belgilangan obyektlarning toifalariga tatbiqan tanlanadi.

To'xtatilgan ishlar bo'yicha maxsus saqlash sharoitlarini talab etadigan biologik obyektlar sud-tibbiyot muassasalarining arxivlarida saqlanadi. Biologik obyektlarni sud-tibbiyot muassasasining arxiviga joylashtirish uchun prokuror, tergovchi, surishtiruvchi, sudning tegishli muassasa rahbariga yuboriladigan xati asos bo'lib hisoblanadi.

#### **Foydaliniqlan adabiyotlar:**

1. <http://www.lex.uz>(O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
2. <http://press-service.uz/uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.
3. <http://natlib.uz> (Alisher Navoiy Nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi).
4. <http://akadmvd.uz> (O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi).
5. <http://ziyonet.uz> (ZiyoNET ta'lim portali).
6. <http://utube.uz/ru> (Utube.uz ta'lim videoportali).
7. <http://book.uz/> (Elektron adabiyotlar kutubxonasi).
8. <http://www.xs.uz> («Xalq so'zi» gazetasi).